

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA PUL KOMPONENTLI PROVERBIAL FRAZELOGIZMLARNING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI

Eshnazarova Kamola Ubaydulla qizi

Termez davlat universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida pul bilan bog'liq proverbial frazeologizmlarning lingvokultural va semantik xususiyatlari chog'ishtirma usulda o'rganiladi. Mazkur frazeologizmlarda xalqning iqtisodiy hayoti, madaniy qadriyatlari va milliy mentaliteti o'z aksini topadi. Ingliz tilida iqtisodiy tamoyillarni aks ettiruvchi pragmatik qo'llanish kuchli bo'lsa, o'zbek tilida ular ko'proq axloqiy va didaktik mazmunga ega.*

Kalit so'zlar: *Frazeologizm, proverbial birlik, pul komponenti, lingvokultura, ingliz tili, o'zbek tili, semantika.*

Proverbial frazeologizmlar millatning dunyoqarashi va qadriyatlarini aks ettiruvchi boy ma'naviy meros hisoblanadi. Ingliz va o'zbek tillarida pul komponentli frazeologizmlar xalqning iqtisodiy va ijtimoiy hayotidagi o'ziga xosliklarini ifodalaydi. Ushbu maqolada pul komponentiga ega proverbial birliklarning tuzilishi, ma'nosi va qo'llanishi lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Ingliz tilida pul bilan bog'liq proverbial frazeologizmlar iqtisodiy tamoyillarni va amaliy maqsadlarni aks ettiradi.

Time is money — vaqtning pul bilan tengligi, vaqtni tejamkorlik bilan ishlatish g'oyasini ifodalaydi.

Money doesn't grow on trees — pulning qiyinchilik bilan topilishi va unga e'tiborli bo'lish kerakligi haqida ogohlantiradi.

O'zbek tilida pul bilan bog'liq frazeologizmlar ko'proq axloqiy mazmunga ega:

Pul qo'lni kir — boylik muhim emas, asosiy qadriyatlar ma'naviyatga bog'liq.

Tejagan pul topganga teng — iqtisodiy tejamkorlikning ahamiyati

ta'kidlanadi.

Har ikkala til uchun proverbial frazeologizmlarda komponentlar birgalikda yangicha ma'no hosil qiladi:

Ingliz tilida: Don't put all your eggs in one basket (barcha mablag'ni bir joyga sarflamaslik kerak).

O'zbek tilida: Bir tiyin yig'ib, ming pul qilmoq (oz miqdordagi mablag'ni ko'paytirishning ahamiyati).

Make money hand over fist (Ingliz tilida) — tez va ko'p miqdorda pul ishlash.

Pulni ko'kka sovurmoq (O'zbek tilida) — pulni behuda ishlatish.

Ingliz tilida sinonim frazeologizmlar ko'proq uchrasa, o'zbek tilida ular kamroq:

Easy money (Ingliz tilida) — Oson topilgan pul.

O'zbek tilida ushbu mazmunni ifodalovchi maxsus sinonim frazeologizm yo'q.

Pul komponentli frazeologizmlar amaliy hayotda ko'p ishlatiladi va iqtisodiy tamoyillarni aks ettiradi.

A fool and his money are soon parted — iqtisodiy beparvolik oqibatlarini tushuntiradi.

Frazeologizmlar ko'proq xalq og'zaki ijodining didaktik xususiyatlarini ifodalaydi.

Pulni ko'paytirishni bilmagan qashshoqlikka mahkum — iqtisodiy mas'uliyat ahamiyati.

Ingliz madaniyatida iqtisodiyot va moliyaviy mustaqillik muhim o'rin tutadi. Shu sababli proverbial frazeologizmlar ko'pincha pragmatik xarakterga ega.

O'zbek madaniyatida ma'naviy qadriyatlar va insoniylik prinsiplariga asoslangan frazeologizmlar keng tarqalgan.

Xulosa o'rnida qayd etish joizki, ingliz va o'zbek tillaridagi pul komponentli proverbial frazeologizmlar milliy madaniyat va mentalitetni aks ettiradi. Ingliz tilida iqtisodiy pragmatizm ustuvor bo'lsa, o'zbek tilida ma'naviylik va axloqiy prinsiplar ko'zga tashlanadi. Bu til birliklari nafaqat lingvistik, balki madaniy ko'rsatkich sifatida ham katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kunin, A. V. (1996). English Phraseology: A Coursebook. Moscow: Vysshaya Shkola.
2. Oxford English Dictionary (2023). Oxford University Press.
3. Mukhtorov, S. (2018). O'zbek tilida frazeologik birliklar. Toshkent: O'zbekiston.
4. Sayfullayev, A. (2020). O'zbek tilida proverbial frazeologizmlarning semantik xususiyatlari. Toshkent: Fan.
5. Cambridge Dictionary of Idioms (2023). Cambridge University Press.